

GENDER TENGLIGI O'ZBEKISTONDA QANDAY KECHMOQDA*Xo'janazarov Absalom Ziyodullayevich**Termiz Davlat Pedagogika Instituti Falsafa ,**ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi tarix**tarix fanlar nomzodi (Phd)**Eshboyeva Madina Rustam qizi**Termiz Davlat Pedagogika Instituti Milliy g'oya ,**ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA: Mamlakatimizda so'nggi besh yil davomida gender tengligi masalasiga ulkan ahamiyat berilmoqda. Gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan va qo'llab-quvvatlash zarurligi e'tirof etilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyatining ilk kunlaridan asosiy e'tiborni ayollar va oila muammolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda gender tengligini ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir har qator normativ- huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

KALIT SO'ZLAR: Gender tengligi, deklaratsiya, mafkura, demokratik, ayollar, ijtimoiy.

HOW IS GENDER EQUALITY PROGRESSING IN UZBEKISTAN

ANNOTATION: Over the past five years, our country has paid great equality. Gender equality is one of the important issues that the United Nations has reorganized as a priority and that requires special attention and support from the very first days of his presidency. President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev has focused his attention on women's and family issues. As a result, a number of regulatory and legal documents were adopted in the past period to ensure gender equality and improve the social living conditions of women.

Keywords: gender equality, declaration, ideology, democratic, women, social.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori shular jumlasidandir. Ushbu qaror mohiyatidan inson huquqlarini himoya qilish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan qo'llab-quvvatlash umuman jamiyatimizda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi o'z navbatida 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga huquqiy kafolat hisoblanadi. Mazkur qonun davlatimiz rahbarining 2019-yil 7-martdagi qabul qilgan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari

kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab -quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga muvofiq ishlab chiqarilgan . "Xotin -qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi "qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.Qonunda gender tengligi tushunchasi ham ta'rif berilgan.Gender xotin -qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida shu jumladan siyosat,iqtisodiy ,huquq ,mafkura va madaniyat ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir.Demak gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarigina ifodalanmaydi .Balki har ikki jins vakillari o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlamogi ularga hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berishini huquqiy kafolatlaydi.

Binobarin har qanday rivojlangan demokratik jamiyatning muhim talablaridan biri ham shu ayollar va erkaklar huquqlari tenglik ta'minlashidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida gender tengligi siyosati masalasi borasida mamlakatimizning ijtimoiy -siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasidagi ayyollarning rolini tubdan oshirishning qaratilgan ishlar qat'iy davom ettirilishi takidladi.SHu maqsadda joriy yillarda O'zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarning muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes-forumi o'tkazish rejalashtirayotgan e'tiborni qaratdi.Prizidentimiz 2020-yilning 23-sentabrda video-anjuman shaklida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambliyasining 75-yilligi sessiyasida nutqida ham O'zbekistonda gender tengligi siyosati ustuvor masalaga aylandi alohida qayt etgani bejis emas. Chunki keyingi yillarda. yurtimizda xotin -qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchayib bormoqda.Parlamentimizga ayol deputatlar soni ikki barobar ko'paydi.Haqiqatan ham ,bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.O'zbekistonda bir qator qonunlar Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash ,xususan gender tengligi va ayollarning zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish,ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlarni qabul qilingan .Gender tenglik bo'yicha tegishli institutsional choralar ham ko'rilmogda.Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida xotin-qizlar va gender tenglik masalasi qo'mitasi tashkil qilingan.Bu yangi tuzilma ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanmogda.Shuni alohida qayt etish kerakki 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari

umumjahon Deklaratsiyasida ayollar va erkaklarning tengligi alohida e'tirof etilgan.Deklaratsiyaning 1-moddasida belgilanganidek "Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar.Ularga aql va vijdon ato qilingan ,binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatida bo'lishlari kerak. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro -huquqiy hujjat Fuqarolik va Siyosiy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlangandek "Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktga ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi.

- 1.Hamidullo Mo'minov "O'zbekistonda gender siyosatiga e'tibor yanada kuchaymoqda
- 2.Ayollarning siyosatda imkoniyatlarni kengaytirish Sevara Usmonova maqolasi
- 3.Yangi O'zbekistonda gender tenglik masalasi va muammolari O'z Mu axborot xizmati
- 4.Dilshoda Mirzajonova Gender tengligi 2023 -yil
- 5.Gender tengligining jamiyatdagi ahamiyati Tolipova Mohlaroyim
- 6.Tanzilla Norboyeva Parijdagi "tenglik avlodi" xalqaro forumi nutqidan
- 7.Sayyora Xodjayev "Gazeta .uz" intervyusi
- 8.Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasi 2022 -yil

